

## O'ZBEK MUSIQASIDA LAZGINIŇ TUTGAN O'RNI VA UNING TURLARI

*O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filiali "Umum kasbiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası "Musiqashunoslik" mutaxassisligi 1-kurs talabasi*

*Madrimova To'xtajon*

*Ilmiy rahbar: Jamil Charshemov*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xorazm raqsi, lazgining tarixi, rivojlanish bosqichlari va taraqqiyot jarayonida amalga oshirilgan keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar, ularning bugungi kuni, raqs san'atining rivoj topishidagi ahamiyati va o'rni haqidagi fikr mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** san'at, lazgi, olov, tarix, tadqiqot, raqqosa, tajriba, tur, qo'lyozma.

**Abstract:** This article describes the history of Khorezmian dance - the history of Lezgi, the stages of development and the extensive research carried out in the process of development, their importance and place in the development of modern dance.

**Keywords:** art, lezgi, fire, history, research, dancer, experiment, tour, manuscript.

Qadimiy Xorazmda uzoq o'tmishda paydo bo'lgan totenizm, animizm, fetishizm kabi dinning ibtidoiy-shakllarida diniy marosimlar birinchi o'rinda turadi. Bu marosimlarda Ilohiy kuchlar so'zsiz raqs harakatlari bilan ulug'langan. Bu harakatlar ilk raqslarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Pantomimik raqs rivojlanib, har xil musiqiy mazmunli o'yin turlari vujudga kelgan. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi davr marosimlarga ham, xalq o'yinlari, raqs, musiqaga o'z ta'sirini o'tkazadi. Uni murakkablashtirib, yangi mavzular, obrazlar olib kiradi.

"Lazgi" deganda ko'z oldingizga orombaxsh kuylari, sehrlil maqomlari, jo'shqin dostonlari, qiziqchi masqarabozlari, shiddatli raqslari bilan mashhur bo'lgan otashnafas san'at makoni qadimiy Xorazm keladi. Har bir xalqning o'zligini belgilovchi milliy yuksak raqsi bo'ladi. Ana shu kuy, kichik raqsqa ko'ra san'at qaysi xalqniki haqida bilish mumkin. "Olov", "Dutor", "Qayroq", "Garmon", "Surnay" qaysi bir tarona yangrasada oldin barmoqlar panjalar bilaklar yelkalarga jon kirib tananing tirilishi ko'z o'ngimizda namoyon b'oladi. Lazgi kuyining boshida tez chalinadigan matn mavjud. Raqqosa qo'llarini kuyga monand holda yuqoriga ko'tarib tabiat uyg'onishini ifodalaydi va qotib qoladi. Jonsiz tana holati sozda nola beradi. Yana nola beradi, qo'llar titrab tushadi, yana nola, nola va inson tirila boshlaydi. "Lazgi" ning bu boshlanishi qat'iy bo'lib, o'zgarmas harakterga ega. Boshqa raqs turlari esa o'zgaruvchan harakterdadir. Masalan, "Tanovar" har xil sharoitda bayram, sayl, to'y

sahnalarda imkonga qarab o'zgarishi mumkin. "Lazgi" esa qaysi sharoitda o'ynalmasin, gavda tik, haykal holatida ya'ni jonsiz tana ifodasi bilan boshlanadi. "Tanovar" insonning ma'lum bir kayfiyati, dil dardini ifodalaydi. "Lazgi" bo'lsa insonning turli holatlari, ichki tu'gyoni, g'ami, dardi, g'azabi, shodligi, shiddati, sevgi muhabbati, nazokati, jo'shqinligi, g'alabasini o'z bag'riga oladi.

Bugungi kunda Xorazmda "Lazgi" raqsining 9 turi mavjud. Mana shu "Lazgi"lar har xil sharoitda paydo bo'lib, asrlar osha bizning davrimizgacha yetib kelgan. Totemizm "Masqaraboz lazgisi", Animizm - "Qayroq lazgisi", Zardushtiylik "Olov lazgisi" afsonalardan kelib chiqqan "Dutor" va "Surnay" lazgilari, fantaziya mahsuli bo'lgan Xiva lazgisi, "Xorazm lazgisi" shart - sharoit taqazosiga ko'ra paydo bo'lgan "Og'lon bola" lazgisi, "Garmon lazgisi" elatlarning aralashuvidan kelib chiqqan Xorazm eroniylari "lazgisi" farqlanadi. Ularning ijro uslubi har xil.

Ibtidoyi jamonining tirikchilik manbai bu ovchilik bo'lgan ov unumli bo'lishi uchun ovda har xil usullardan foydalanishgan. Ov qilishda har xil o'yinlardan foydalanishgan. Shu tariqa vaqtlar o'tishi bilan ov o'yinlari paydo bo'lgan. Masqarabozlik o'yinlari lazgiga ham ta'sir o'tkazdi. Keyinchalik masqarabozlik lazgisi vujudga keldi. Tabiatda turfa ohanglar inson qalbida tuyg'u uyg'otadi. Inson bu tuyg'uni ifoda etishni istab qoladi. Tuyg'uni ichdan chiqarish uchun vosita qidiradi. Qalbidagi tuyg'uga mos ohang topish uchun toshlarni bir biriga uradi goh tosh bilan temirni urishtrib ko'radi oxiri ko'ngliga mos asbob topdi. Bir parcha silliq tosh va temir qayroq tilga kirdi. Qayroq tufayli Xorazm lazgisi yanada oz vaqt o'tib qayroq lazgisi doira jo'rligida yangray boshlanadi.

Lazgi kuyuning dutorda chalinishi raqs ijrochilari uchun ilhom manbasi bo'lib kelgan dator lazgisi asosan xotin qizlarniki bo'lib kelgan. Dutor lazgisi shunday o'ynaladi dator o'z nolasini boshlaydi raqqosa rezga muonand qo'llarini yuqorga ko'targancha asta sekin tempga qaragancha harakatlana boshlaydi.

Xorazmda surnay lazgisi ayniqsa to'y bayramlarda yangrovchi kuy sanalgan surnay lazgisi jang oldidan va g'alaba qozongandan keyin ijro etiladigan hisoblongan.

Garmon lazgisi mohiyatida ayol go'zalligi, iffati shodligi ifodalanadi. Bu ifoda asosan yuz, qosh, ko'zlar yordamida qaddi qomat harakatlari orqali yuzaga chiqadi.

Changak lazgisi raqs uslubi serjiloligi bilan ajralib turadi. Raqsda asosan raqqos davra aylanib yugurib qo'llarni resga monan harakatlantiradi raqosning qo'llari 2 3 takt qotib turaveradi va asta sekin ohanga mos harakatlana boshlaydi.

Xiva lazgisi o'ziga xos bo'lib bu juda mashhurdir raqqoslar boshiga parli bezakli taxya kiyishadi ko'krigiga taqinchoqlar taqishadi asosan kiyimlari bilan e'tiborni jalb qiladi

"Masqaraboz lazgisi" ni o'ynaydigan ijrochi Xiva lazgisini yoki "Dutor lazgisi" ni o'ynay olmasligi mumkin. Shuning uchun "lazgi" ijrochiligining uslubi turlicha, biri ikkinchisiga o'xshamaydi. Bu uslublarni o'rganish juda qiyin. "Lazgi" ni o'z ijrochisi bor. "Lazgi" ni istagan raqqosa san'atkor o'ynay oladi deb o'ylashadi, lekin bu noto'g'ri.

Turli davrda rahbar bo'lib ishlagan hodimlardan Madamin Matkarimov, Hasanboy Yo'ldashev, Razzok Xasanov, Ulibiba Abdullayeva, Zaynab Qilichova Xorazimning mashxur "lazgichi" laridan.

Xorazim viloyati hokimligi tashabbusi bilan Qadimiy san'atimizni rivojlantirish, xalq ichidan iste'dodlarni topish, ularni rag'batlantirish, "Lazgi" raqsi turlarini saqlash, boyitish maqsadida har yili ko'rik-tanlovlar ko'rsatilgan. Unda yoshi, kasbi va boshkalaridan qat'iy nazar, hamma qatnashishi mumkin. Viloyat ko'rik-tanlovining maxsus Nizomi ishlab chiqildi. Nizomga ko'ra, hisoblangan yosh guruhi: 17 jild, 17 yoshdan 35 yoshdan, yuqori bo'lgan guruhlar ajratilgan. Ko'rik tanlov qatnashchilari ikkita shart bo'yicha, ya'ni ananaviy "lazgi" raqsi turlaridan biri va qadimiy Xorazm o'yinlaridan birini ijro etib, o'z san'atini ko'rsadilar. Hozirgi kunga kelib YUNESKOning insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritilishi va hozirgi kundagi unga qaratilayotgan e'tibor, birgina O'zbekistonda emas balki butun dunyoga tanilishi san'at namoyondalari va ixlosmandlari uchun judayam quvonarlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 28-sentabrda "Lazgi xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi PQ 4843-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra 2022-yildan boshlab har ikki yilda bir marta "Lazgi" xalqaro raqs festivali 25-30-aprel kunlari Xiva shahrida o'tkazilishi belgilangan. Bu esa lazgi raqsini yanada yangi qirralari ochilishiga va butun jahonga tarannum etilishiga yana bir yo'ldir. Undan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston xoreografiya akademiyasining Urganch filialini tashkil etish to'g'risida"gi 31-son qarori ham aynan "Lazgi"ni asrab-avaylash, uni ilmiy o'rganish, jahon miqyosida keng targ'ib qilishga qaratilgani bilan ham alohida ajralib turadi. "Lazgi"ni ekranlarga hujjatli film sifatida olib chiqishda ham rejissorlar tomonidan jonbozlik ko'rsatilmoqda. Ulardan biri yosh rejissor Ixtiyor Baxtiyorov tomonidan tasvirga olingan "Lazgi" hujjatli filmi "Art Stream", "Fifflondon", "Blackboards", "Lift-Off Season Awards", va "IFFT" kabi qator xalqaro tanlovlarda "Raqs haqidagi eng yaxshi hujjatli film" sifatida munosib ko'rilib, mukofotlandi. Lazgi butun dunyo e'tiboridagi raqsga aylandi. Endi professional raqqosalarimiz butun dunyo kezib o'zlarining raqs mahoratlarini, lazgi raqsiga o'yin tushish mahoratlarini chet elga yoyishlari mumkin. Chunki endi bu raqsqa qiziquvchilar soni keskin oshgan. Dubai Opera sahnasida "Lazgi-qalb va muhabbat raqsi" balet postanovkasining xalqaro premyerasi bo'lib o'tdi. Milliyligimiz durdonalari bo'lmish bu raqslar chet el vakillari qalbidan ham chuqur joy egallab ulgurdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Чаршемов Ж. МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕК КИНОМУСИҚАСИ //Вестник музыки и искусства. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 16-22.

2. Charshemov J. Karakalpak bakhshis and schools of bakhshi art //Teoretical and Applied Science (ISSN: 2409-0085). – 2023. – T. 118. – C. 178-180.
3. Jamil Charshemov. (2024). PROCESSES OF REALIZATION OF KARAKALPAK FOLKLORE IN SYMPHONIC MUSIC OF 30-80 YEARS OF XX- CENTURY. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(1), 33–36.
4. PROCESSES OF REALIZATION OF KARAKALPAK FOLKLORE IN SYMPHONIC MUSIC OF 1990-2010 OF XX-XXI CENTURY. (2024). *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 2(1), 37-41.
5. Charshemov J. Problems of Using Karakalpak Folklore in Composers //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 270-273.
6. Charshemov J. A REVIEW OF MARKABAY JIEMURATOV'S WORK //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 818-821.
7. Чаршемов Ж. БАЛЕТДА ЖЖ НОВЕР РЕФОРМАТОРЛИГИ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 33. – №. 2. – C. 20-25.
8. Charshemov J. XVI-XVII ASRLARDA BALETNING YEVROPADA KLASSIK RAQS TURI SIFATIDA RIVOJLANISHI //Вестник музыки и искусства. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 22-27.
9. Charshemov J., Muratbaeva R. JAՆԱ RUXTAՂԻ XALIQ QOSIQLARI //Вестник музыки и искусства. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 16-21.
10. Charshemov J., Orazalieva G. BAROKKO DÁWIRINIՆ GARMONIYASÍ //Вестник музыки и искусства. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 49-53.
11. Orazaliyeva G. THE CREATIVE PATH OF AMET TAKHIROV //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 188-191.
12. Abdikarimova I., Kamalova G. KARAKALPAK FOLKLORE //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 1237-1239.
13. Ulzada O., Kamalova G. M. QARAQALPAQSTANDA OPERA JANRINIՆ RAWAJLANIWI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 37. – №. 2. – С. 36-40.
14. Madrimova T., Kamalova G. M. TEACHERS ARE DEAR... //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1.
15. //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 283-288.